

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAMDAMOV USMON ERGASHEVICH**

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI WEB-QUEST  
VOSITASIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHGA O'RGATISH  
TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Xamdamov Usmon Ergashevich**

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasi .....3

**Хамдамов Усмон Эргашевич**

Технология обучения будущих преподавателей английского языка к организации самостоятельного образования средством web-quest .....23

**Khamdamov Usmon Ergashevich**

Technology of teaching future English teachers to organize independent study through web-quest .....45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

**Список опубликованных работ**

List of publications.....51

**OLIV TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01  
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XAMDAMOV USMON ERGASHEVICH**

**BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINI WEB-QUEST  
VOSITASIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL QILISHGA O'RGATISH  
TEXNOLOGIYASI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2024.1.PhD/Fil4390 raqami bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb sahifasida ([www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)) va "Ziyonet" axborot ta'lim portaliga ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Raximov Baxtiyor Xudoyberdiyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ismailova Zuhra Karabayevna,**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Bozorov Bunyod To'liqinjonovich**  
pedagogika fanlari falsafa doktori (Phd), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "25" 03 soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: +99871 202-01-20, faks (+99871) 202-01-21, web: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz), e-mail: [info@bimm.uz](mailto:info@bimm.uz)).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (30-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: +99871 202-01-20, faks (+99871) 202-01-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "2" 03 kuni tarqatildi.  
(2026-yil "2" 03 dagi 3-raqamli reyestr bayonnomasi).



**U. Sh. Begimkulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
kengash raisi,  
p.f.d., professor

**X.S. Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi (DSc), dotsent.

**Ya.U. Ismadiyarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy  
seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor.

## **Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda xorijiy tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tili bugungi kunda global axborot almashinuvi va madaniy muloqotning eng muhim vositalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tilining xalqaro reytinglardagi yuqori o'rni ushbu tilda ta'lim berish jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitish metodikasini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida, xususan, rivojlangan mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimining keng tatbiq etilishi ingliz tili ta'limida mustaqil o'qish faoliyatining mazmunini muntazam yangilab borishni talab etadi. Bunday yondashuv ta'lim oluvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish, ularning mustaqil o'rganish, tahlil qilish va kommunikativ faoliyatga tayyorlik darajasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, Angliyaning "Pearson Education", "Gatehouse Awards" va Italiyaning "Global Hippo Assosiation" tashkilotlari tomonidan ingliz tili ta'limini rivojlantirish hamda bunda ingliz tilidan ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishga mo'ljallangan dasturiy vositalardan foydalanishga e'tibor qaratilgan. Yangi zamonaviy elektron o'quv platformalari o'quvchilarga o'z bilimni nazorat qilish, amaliy mashqlar orqali tilni chuqurroq o'zlashtirish hamda o'qituvchilarga o'quv jarayonini tahlil qilishda qulaylik yaratadi. Zamonaviy raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu orqali ingliz tili ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, o'quvchilarning qiziqish va ehtiyojlariga mos o'quv muhiti yaratish imkoniyati paydo bo'lada. Natijada, ta'lim jarayonining samaradorligi ortib, xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi.

Respublikamizda ingliz tilini o'rgatishga bo'lgan e'tibor va bu sohada amalga oshirilgan siyosiy islohotlar yoshlarimizni dunyoga tanitish hamda shu orqali mamlakatimizni dunyo hamjamiyatida e'tirof etilishiga asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi kunda, ingliz tili fani o'quv mazmunini ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalar asosida zamonaviylashtirish, elektron pedagogik dasturiy vositalar yaratish va undan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili bo'yicha DTS va MTlarga asosan, talabalarning mustaqil ishi, ta'lim mazmunining asosiy komponenti hisoblanib, ta'lim oluvchi, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar davomida bilimlarni yanada chuqurlashtirish hamda kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu o'rinda Prezidentimizning 2021-yil 6-may sanasida o'tkazilgan "Chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" mavzusidagi videoselektor yig'ilishida "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajagimiz uchun mustahkam

poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yishni vaqti-soati keldi"<sup>1</sup> deya ta'kidlagan fikrlari mamlakatimizda ingliz tilini o'qitish bo'yicha yangicha uslublar yaratishga undaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ish muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda chet tillarni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarini qo'llash masalalari bo'yicha: Y.N.Abdullayeva, L.T.Axmedova, G.X.Bakiyeva, A.A.Abduazizov, J.J.Jalolov, B.Kulmatov, G.T.Maxkamova, S.A.Misirov, I.M.To'xtasinov, A.A.Pozilov kabi olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. R.H.Djo'rayev, R.Safarova, A.T.Nurmanov, B.X.Raximov, V.S.Hamidov, Sh.S.Sharipov, K.J.Riskulova, Z.K.Ismoilova kabi olimlarning tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, axloqiy, madaniy, ilmiy-ijodiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga oid muammolar o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan: S.V.Napalkov, E.V.Zmiyevskaya, P.I.Pidkasiy, G.G.Pushkina, I.V.Savchenko, N.Xlupina, V.A.Kozakov, A.A.Ayurzanayn, E.N.Voronova, V.M.Egorova va boshqalarning tadqiqotlarida xorijiy tillarni o'qitishda mustaqil ta'limni tashkil qilishga oid muammolar o'rganilgan.

Xorijiy mamlakatlarning N.G.Dayri, T.Anderson, B.L.Cynthia, B.J.Dodge, T.March, E.A.Halat kabi olimlari zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalari yordamida tillarni o'qitish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqoridagi olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining mazmuni bilan tanishib chiqib, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2021-yil 6-may kuni o'tkazilgan "Chet tillarni o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari" mavzusidagi videoselektor yig'ilishi. Murojaat sanasi: 22.08.2022 // <https://iiv.uz>

dasturiy vositalar yaratish va ulardan samarali foydalanish texnologiyasini takomillashtirish masalalari ushbu sohada ilmiy tadqiqot ishi olib borishga asos bo'lib xizmat qiladi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalarga muvofiq №71-07 "Oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-kasbiy barkamol shaxsni shakllantirishning pedagogik texnologiyalari" (2020-2023-yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish modelini takomillashtirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish jarayonini rivojlantirish;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasi samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilish jarayoni belgilanib, Guliston davlat universiteti, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti va Qarshi davlat universitetlarining chet tillari fakultetlari talabalaridan jami 302 nafari tajriba-sinov ishlariga jalb qilindi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishining mazmuni, shakli, metod, vosita va texnologiyalari.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot ishi jarayonida mavzuga doir nazariy, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish va o'rganish, sotsiologik o'lchov metodlari (anketa, suhbat, test), pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil etishga o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari til ko'nikmalarini mustaqil o'zlashtirish jarayonida web-quest texnologiyasining kognitiv-motivatsion faollikni kuchaytirish hamda interaktiv tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan mentorlik algoritmi asosida aniqlangan;

web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish modeli talabaning texnologik tayyorgarlik darajasi hamda virtual muhitda til ko'nikmalarini o'zlashtirish usullarini ixtiyoriy tanlash imkoniyatlarini inobatga olgan holda, teskari aloqa (feedback) va raqamli refleksiya mexanizmlari asosida takomillashtirilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil etishga o'rgatish jarayoni web-quest vositasida tilga o'rgatishning immersiv texnologiyalariga asoslangan mustaqil ta'lim onlayn resurslari hamda auditoriya amaliy mashg'ulotlarini gibridd qo'llash orqali rivojlantirilgan;

web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil etishga o'rgatish texnologiyasining samaradorligi raqamli ta'lim resurslarini talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirish jarayonini intellektual yo'naltirish hamda texnologik empatiyani shakllantirishga asoslangan mezonlar orqali aniqlashtirilgan.

#### **Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil etishi” nomli elektron resursi ishlab chiqilgan va oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga tatbiq etilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning pedagogik imkoniyatlari asosida “Essential English for the first year students of applied mathematics and information” nomli o'quv qo'llanma chop etilgan;

web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga qo'yiladigan texnologik talablar (kommunikativ kompetensiya, individual yondashuv, guruhli qidiruv, tanqidiy fikrlash) asosida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashga qo'yiladigan kasbiy va pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Metodologik yondashuvlar, metodlarning respublikamiz va xorijda yaratilgan pedagogika hamda chet tiliga oid ilmiy va ilmiy-metodik tadqiqotlar, amaliyotchi-o'qituvchilarning tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tadqiqot metodlarining qo'llangani, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi, tajriba-sinov ishi samaradorligining matematik statistika metodlari bilan asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy qilingani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning hozirgi holatini tahlil qilish va tahlil natijalari asosida web-quest texnologiyasidan foydalanish bo'yicha pedagogik imkoniyatlarni aniqlashtirilganligi, mustaqil ta'limni tashkil qilishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishga qo'yiladigan texnologik talablarni ishlab chiqilganligi va web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasini takomillashtirish modelini ishlab chiqilganligi tadqiqot ishining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarining chet tili ta'lim yo'nalishi uchun o'quv dasturlari mazmuni tadqiqot natijalari asosida takomillashtirilgani, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qo'llanmalar hamda darsliklarni yaratishda foydalanilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasi mavzusi doirasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot, olingan barcha xulosalar, uning

natijalari kelgusida ingliz tili o'qituvchilarining istiqboldagi pedagogik mahoratlarini oshirishda, shuningdek, ta'lim samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi:

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning pedagogik imkoniyatlarini til ko'nikmalarini mustaqil o'zlashtirish jarayonida web-questning kognitiv-motivatsion faollik va interaktiv tafakkur mentorlik algoritmi asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar Guliston davlat universitetining 234-12-sonli guvohnomasi bilan tasdiqlangan "Essential English for the first year students of applied mathematics and informatics" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 11-fevraldagi 02/01-01-84-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning hozirgi holatini tahlil qilishga erishilgan;

web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish modelini talabaniing texnologik tayyorgarlik darajasi hamda virtual muhitda til ko'nikmalarini o'zlashtirish usullarini ixtiyoriy tanlash imkoniyatiga ko'ra teskari aloqa (feedback) va raqamli refleksiya mexanizmlari asosida takomillashtirishga oid takliflardan Guliston davlat universitetida bajarilgan 2020-207-reyestr raqamli Arkansas Spring International Language Center "English language capacity building project" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 11-fevraldagi 02/01-01-84-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasini takomillashtirishga sharoit yaratilgan;

bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish jarayonini web-quest vositasida tilga o'rgatish immersiv texnologiyalariga asoslangan mustaqil ta'lim onlayn resurslari va auditoriya amaliy mashg'ulotlarini gibrid qo'llash orqali rivojlantirishga oid takliflar Guliston davlat universitetining 130-15-sonli guvohnomasi bilan tasdiqlangan "Reading Comprehension Exercises for the first year sports activity students" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2026-yil 11-fevraldagi 02/01-01-84-son ma'lumotnomasi). Natijada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilish samaradorligini oshirish imkoni kengaytirilgan;

web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasi samaradorligini raqamli ta'lim resurslarini talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirilishini intellektual yo'naltirish va texnologik empatiya asosida aniqlashga oid takliflar Guliston davlat universitetining 234-12-sonli guvohnomasi bilan tasdiqlangan "Essential English for the first year students of applied mathematics and informatics" nomli o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2023-yil 11-martdagi 02-07-932/04-son ma'lumotnomasi). Natijada mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasini takomillashtirish samaradorligi oshgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro, 9 ta respublika miqyosidagi ilmiy jurnallarda muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 20 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil etishi" nomli elektron resursi yaratilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan, 3 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 130 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiya ishining **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi, zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy-tadqiqot ishlari dasturi bilan bog'liqligi bayon etilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda dissertatsiyaning vazifalari, ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan; natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning "**Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishning ilmiy nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida web-quest bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish vositasi sifatida ekanligi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatishda web-questning mohiyati hamda muammoning nazariy va amaliyotdagi holati bayon etilgan.

Ta'lim samaradorligini oshirishning eng sinalgan usullaridan biri bu – mashg'ulot jarayonida talabalarning faolligini mustaqil ta'limni tashkil etish orqali oshirish hisoblanadi. Talabalar individual mustaqil faoliyat davomida muhim bilim va ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirishini hisobga olsak, zamonaviy mashg'ulot jarayonida mustaqil ta'limning o'rni juda muhimdir.

Tahlillardan so'ng biz talabaning mustaqil ishi to'g'ri tashkil etilgan auditoriya faoliyatini tekshirish, darsdan tashqari ta'lim jarayonini kengaytirish, takomillashtirish va davom ettirishdan iborat degan fikrga qo'shilamiz. O'qituvchilar tomonidan tashkil etilgan o'quv ishlarini talabaning mustaqil ta'lim intizomini qo'llab-quvvatlash sifatida targ'ib qilish kerak. Bu shuni anglatadiki, tilni o'zlashtirish samaradorligi o'qituvchining, o'quv jarayonini tashkil etishi, shuningdek, fanni mustaqil rivojlantirishning bir qancha texnologiyasini shakllantirishiga bog'liq.

Olimlarning ishlarini tahlil qilib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, mustaqil ta'limning samaradorligi talabalarning aqliy faolligi va ijodiy salohiyatining rivojlanishiga, avval olingan bilimlarga tayanishiga, izchil tuzilgan bilim jarayoniga, yangilik shakllari va elementlarining xilma-xilligiga bog'liq.

Olib borilgan tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, fan, texnika, iqtisodiyot va ishlab chiqarishda axborot jarayonini intensivlashtirish va joriy etish ta'limda:

- yangi modelni ishlab chiqishni;
- turli axborot ta'lim muhitlarini yaratishni;
- AKT dan keng foydalanishni talab etmoqda.

Tadqiqotni olib borishda "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasi" tushunchasini pedagogik nuqtayi nazardan sharhlashga e'tibor qaratildi. Bizningcha, web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasi –"talabalar internetda ma'lumotlarni belgilangan manzillarda izlashlari uchun mustaqil tadqiqot faoliyatining maxsus tashkil etilgan turi" deb ataladi. Faoliyatning bu turi talabalarning mustaqil ishlashi uchun vaqtdan oqilona foydalanish, ta'lim jarayonida zarur xilma-xil axborot va undan qanday foydalanishni tez topa olish hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, axborotlarni tahlil qilish, sintez qilish va baholashni ta'minlaydi. Bilim, ko'nikma va malakalarni tarbiyalash hamda nazorat qilishning bu usuli ta'lim muhitining zamonaviy talablari va xususiyatlariga javob beradi. Bugungi kunga kelib axborot tezligi maksimal darajaga yetgan bo'lib, global tarmoqdan istalgan ma'lumotni bir necha soniyada, istalgan (matnli, grafikli, rasmi, audio va video) ko'rinishda qabul qilish, saqlash, foydalanish va o'zgartirish mumkin. Bu esa o'z ustida ishlayotgan har bir bo'lajak o'qituvchiga izlanishdan to'xtab qolmasligi uchun yangi fikrlar va g'oyalar beradi.

Web-questlarni ishlab chiqish texnologiyasi murakkab jarayon bo'lib, u o'qituvchining ko'p vaqtini, kuch-g'ayratini va energiyasini talab qiladi, u vazifalarni yaratish uchun ma'lum mavzu bo'yicha internet resurslaridan keng miqyosdagi axborotni qo'llaydi. Boshqa tomondan, mustaqil ishning bu turidagi faoliyatida talaba jamoada yoki yakka tartibda ishlashidan qat'i nazar, topshiriqni bajarish uchun eng qulay sur'atni tanlashi mumkin. Qolaversa, talabalarga mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni qidirish imkoniyati beriladi, lekin o'qituvchi tomonidan belgilangan ma'lum chegaralar doirasidagina, xolos. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi tasdiqlanmagan, noto'g'ri ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini istisno qilish uchun saytlarni oldindan tanlaydi. O'qituvchi ma'lumotlarni ta'lim jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan nuqtayi nazardan baholab, internet resurslarini tanlab olishi, talabalarning til tayyorgarligining turli darajalariga e'tibor qaratishi lozim.

Shunday qilib, zamonaviy kvest texnologiyasining xususiyatlariga oid ilmiy ishlarni nazariy tahlil qilish, shuningdek, ta'lim kvestlarini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha o'z tajribamiz bizga kvest texnologiyasini ta'lim muhitini tashkil etish uchun o'quv jarayoniga joriy etish eng zamonaviy talablarga javob berishini ta'kidlash imkonini beradi, chunki o'quv jarayoni ishtirokchining mustaqilligiga qaratilgan; o'qituvchining vazifalari repetitor, yordamchi funksiyalarga aylanadi;

o'qituvchi bilan muloqot qilish vaqti ortadi; tafakkurni rivojlantirish va bilimlarni passiv egallashdan faollikka o'tish amalga oshiriladi; axborot va ta'lim muhiti ochiq tizimga aylanadi, yangi axborot manbalari doimiy ravishda, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish imkoniyatlari bilan boyib boradi; axborot texnologiyalari ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb etiladi; talabalarning ma'lumotlarni mustaqil ravishda izlash, to'plash, tahlil qilish va u yoki bu shaklda taqdim etish qobiliyati shakllanadi hamda rivojlanadi; talabalarning umumiy ta'lim va kasbiy ko'nikma hamda malakalari rivojlanadi, ularning ixtisoslashtirilgan fanlar bo'yicha bilimlari mustahkamlanadi.

Tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan "Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish jarayoni quyidagi prinsiplar asosida kechadi (1-rasm):



**1-rasm. Mustaqil ta'limni tashkil qilishning zamonaviy modeli prinsiplari.**

Web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilish quyidagi pedagogik imkoniyatlarni beradi:

boshqa pedagogik texnologiyalardan farqli o'laroq, o'qitishning o'yin texnologiyalari har qanday yoshdagi shaxs uchun umumiy faoliyat shakli ekanligi bilan farq qiladi;

kognitiv, aqliy faoliyatni faollashtirishning samarali usuli;

zarur fandan yuqori bilim va ko'nikmalarni shakllantirishni ta'minlaydi;

ko'p funksiyali bo'lib, uning talabaga ta'sirini bir jihat bilan cheklab bo'lmaydi;

individual, ham guruh ishida amalga oshiriladi;

tegishli pedagogik natijaga ega.

Ingliz tilini o'rgatish uchun web-questdan foydalanish g'oyasi tadqiqotda qatnashgan ishtirokchilarning ingliz tilini bilish darajasini oshirish vositasi bo'lib xizmat qildi, shuningdek, ingliz tilini o'qitishda foydali va innovatsion texnologiya bo'lib, talabalarga maqsadli tildan haqiqiy foydalanish imkonini beruvchi to'g'ridan-to'g'ri va hamkorlikda o'rganish usulini yaratdi. Umuman olganda,

ma'lumotlarni sharhlash va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, web-quest foydali va rag'batlantiruvchi faoliyatdir, chunki u talabalarni keng manbalardan foydalangan holda tilni o'zlashtirishga undaydi.

Dissertatsiyaning **“Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga samarali tayyorlash mexanizmi hamda texnologik asoslari va uning istiqbolli faol shakllari o'z ifodasini topgan.


Bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ishlari mazmuni ikki yoqlama mazmunga egadir. Bir tomondan, u o'quv jarayonida talabalar bajarishi lozim bo'lgan o'quv (nazariy yoki amaliy) vazifalar majmui yoki ularning faoliyat obyekti hisoblanadi. Boshqa tomondan, talabalarning tegishli o'quv vazifasini bajarishlari uchun o'ziga xos uslubdir. Bu mazmun talabalar mustaqil ishi turlari va tashkiliy shakllarida o'zining tashqi ifodasini topadi. Talabalarning mustaqil ish turlarini quyidagilarga ajratish mumkin: ta'limni tashkil etish shakli (sinf dan va maktabdan tashqari), o'quv faoliyati shakli (individual va guruh), ish hajmi (alohida vazifani bajarish va yaxlit kursni o'zlashtirish), faoliyat mahsulotlarini ro'yxatga olish usuli (yozma, og'zaki, amaliy), ta'lim bosqichi (yangi material bilan tanishish bosqichida, yangi materialni ta'minlash bosqichida), idrok etish jarayoni darajasi (idrokni qo'zg'atuvchi, konstruktiv-variantiv, evristik, tadqiqiy). Talabalar mustaqil ishlarining har bir turi faoliyat uslubi strukturalarini ifodalovchi muayyan tashkiliy shakllarda mujassamlashadi. Pedagogik kasbni egallaydigan talabalarning turli mustaqil ishlari bir xil tashkiliy shakllarni o'z zimmasiga olishi mumkin. Masalan, individual yoki guruh ko'rinishidagi mustaqil ish loyihasini olaylik: amaliy mashqlardan yangi materialni mustahkamlash bosqichida bo'lganidek, qo'llash bosqichida ham foydalanish mumkin; konkret pedagogik vaziyatlar tahlilini sinfda, hamda sinfdan tashqari mustaqil ishlarga ham kiritish mumkin.

Ingliz tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ya'ni web-quest texnologiyalari yordamida, yanada aniqrog'i internet manbalari yordamida jonli tilga imkon qadar yaqin muloqot muhitini yaratish mumkin. Bu chet tilini o'rgatishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, jonli til muhitini yaratish og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga, chet tilini yaxshiroq tushunishga va umuman uni egallashga yordam beradi.

Ta'lim jarayonida web-questlardan faol foydalanish talabalarda ilmiy-tadqiqot ishlari, o'z-o'zini tarbiyalash, ijodiy salohiyatini amalga oshirish va qo'llash, mustaqil yoki bir guruh qismi sifatida vazifalarni yechish qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish bilan bog'liq ta'lim maqsadlariga erishishda hissa qo'shadi.

Ingliz tili darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ya'ni web-quest texnologiyalari yordamida, yanada aniqrog'i internet manbalari yordamida jonli tilga imkon qadar yaqin muloqot muhitini yaratish mumkin. Bu chet tilini o'rgatishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, jonli til muhitini yaratish og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga, chet tilini yaxshiroq tushunishga va umuman uni egallashga yordam beradi.

Web-questlar ikki asosiy turga bo‘linadi: qisqa muddatli (bir-uch soatga mo‘ljallangan) va uzoq muddatli (mashg‘ulotlar bir necha oy, semestr va yaxlit o‘quv yiliga mo‘ljallangan).



**2-rasm. Web-questning muddati va maqsadi.**

Web-quest strukturasi, qoidaga ko‘ra, to‘rt majburiy bo‘limdan quriladi:

1) kirish (Introduction) – muammoning qurilishi, web-quest loyihasi mavzusi va maqsadi bayoni, qiymatining asoslab berilishi;

2) topshiriq (Task) – rollar, loyiha ishtirokchilari majburiyatlarining taqsimoti, yakuniy natija, optimal muvaffaqiyatining shartlari tasavvuri shaklini aniqlash;

3) bajarish (Process) – topshiriqni (internet-manba va axborotning har qanday manbayi hamda web-quest bilan ishni yanada samarali tashkil etish imkonini beruvchi ko‘makchi materiallarga havola) bajarish uchun zarur ish, manbalar jarayoni (bosqichlari) tasviri;

4) baholash (Evaluation) – web-quest bilan ishlashda mezonlar haqidagi tasavvur va baholash parametrlari.

Web-quest vositasida mustaqil ta‘limni tashkil qilishga o‘rgatish kompetensiyalarini shakllantirishning 2020-2021, 2021-2022, 2022-2023 o‘quv yillaridagi mavjud holati o‘rganib chiqildi. Web-quest bajarilishi sifatini baholash uchun mezonlar ishlab chiqildi.

Web-quest texnologiyasidan foydalanishning muhim bosqichi talabalarning mustaqil ishlarini baholash hisoblanadi. Web-questni baholash mezonlari va parametrlari tavsifi topshiriq berilgan paytdan boshlab talabalarga taqdim etiladi. Bu esa ularning faoliyatini muayyan natijaga undaydi, muvaffaqiyatga erishishga undaydi. Baholashda nafaqat talabalarning guruhli mustaqil ishi, balki individual ishlari ham ko‘rib chiqiladi. Web-quest natijalari besh mezon yordamida baholandi:

1. Vazifani tushunish.
2. Rolni bajarish.
3. Internet manbalaridan foydalanish.
4. Axborotga ishlov berish.
5. Natijalarni rasmiylashtirish.

Natijalarni sarhisob qilish uchun beshta mezon bo'yicha olingan barcha ballar jamlanib, eng yaxshi ko'rsatkichlarni qo'lga kiritgan guruhni aniqlash imkoni yaratildi.


Mustaqil ta'limni to'g'ri va maromida tashkil etish belgilangan maqsadga erishish, talabalarda ma'lum ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish, mustahkamlash va bilimli, yetuk kadrlar yetishib chiqishiga xizmat qiladi. Ingliz tili darslarida qo'llaniladigan web-quest texnologiyasi innovatsion bo'lib, o'quv jarayonining maqsad va vazifalarini amalga oshirishni ta'minlaydi, fanni o'qitishning barcha bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Web-quest talabalarni ingliz tilini o'rganishga undash, muayyan mavzu bo'yicha tizimli tadqiqot shaklida o'quv ishlarni tashkil etish va web-questni yaratishda yakka tartibda yoki guruhda ishlashga undash kabi afzalliklarga ega. Bugungi kunda global axborot makoniga kirish imkoni bo'lmagan ta'lim maskanlari mavjudligini tasavvur qilish qiyin. Internet ma'lumotni topish va bilimlarni uzatishning universal vositasidir. Ko'pgina o'qituvchilar internetga ko'proq yoki kamroq e'tibor qaratgan holda yangi o'qitish usullarini o'zlashtiradilar va ishlab chiqadilar. Axborot texnologiyalari talabalarning mustaqil o'rganishlari va o'z bilimlarini oshirish uchun ko'proq mas'uliyatni o'z zimmalariga olishini ta'minlaydigan yangi o'quv muhitini yaratishga yordam beradi. Internetning axborot salohiyati shunchaki cheksizdir. Bu yerda siz nafaqat o'zingizni qiziqtirgan har qanday ma'lumotni olishingiz, balki butun dunyo bo'ylab tarmoq foydalanuvchilari bilan o'z ma'lumotlaringizni baham ko'rishingiz mumkin.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish modelini loyihalashda, talabaning metakognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan eng muhim bosqichlardan biri, metakognitiv tajribani rivojlantirish va to'plash uchun eng kuchli salohiyatga ega bo'lgan tadqiqot bosqichini ko'rib chiqamiz, buning natijasida shaxsning boshqariladigan mustaqil faoliyati shakllanadi.

Bizning nazariy tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, web-quest texnologiyasidan foydalanish talabalarning chet tili kommunikativ kompetensiyasini, shuningdek, ularning metakognitiv qobiliyatlari va ko'nikmalarini rivojlantirishning eng samarali pedagogik vositalaridan biri bo'lib, ularsiz bilish va anglash jarayonini amalga oshirish mumkin emas.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, biz talabaning muvaffaqiyatli mustaqil faoliyati va kognitiv jarayonda o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish uchun web-quest texnologiyasi bilan ishlashda uning chet tilini o'qitish jarayoniga integratsiyalashuvi strategiyasini uslubiy jihatdan to'g'ri tuzish muhim degan xulosaga keldik.

Tadqiqot ishi davomida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasini takomillashtirish modeli ishlab chiqildi. Model maqsad, jarayon va natijaviy bloklardan iborat (3-rasm).



**3-rasm. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta'limni tashkil qilishga o'rgatish texnologiyasini takomillashtirish modeli.**

Tadqiqot ishida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini mustaqil ta’limni tashkil etishga o‘rgatishning pedagogik imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu maqsadda mustaqil ta’lim jarayonida web-quest texnologiyasidan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinib, uning asosida talabalarning kognitiv-motivatsion faolligini oshirish va interaktiv tafakkurini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik model ishlab chiqildi. Mazkur modelda mentorlik algoritmi asosida talabalarning mustaqil ta’lim faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ularni rag‘batlantirish va faol ishtirokini ta’minlash mexanizmlari belgilab olindi.

Shuningdek, talabalarning raqamli muhitdagi ta’lim jarayonini boshqarish, mustaqil resurs tanlash va individual o‘quv traektoriyalarini shakllantirish imkoniyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari web-quest texnologiyasidan foydalangan holda mustaqil ta’limni tashkil etish modelini takomillashtirish, uni intellektual va emotsional o‘zaro ta’sir asosida amalga oshirish imkonini yaratdi.

Bu texnologiya internetning axborot resurslaridan foydalanishga, ularni ta’lim jarayoniga integratsiyalashga qaratilgan. Web-quest qidiruv ishlari natijalarining taqdimoti slaydlar, veb-sahifalar, matnli hujjatlar yoki boshqa har qanday shakldagi ko‘rinishni o‘z ichiga oladi. Tarmoqdagi web-questlarning to‘g‘ri joylashuvi talabalarning eng yaxshi natijalarga erishish uchun motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Web-quest oxirida talabalar o‘z ishlarini tanqidiy tahlil qilish, uni baholash va boshqalarning ishini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladilar, o‘qituvchi esa barcha talabalarning qidiruv ishlarini baholashi mumkin.

Talabalar bilan ishlashda ushbu texnologiyadan foydalanish ularning o‘quv materialini o‘rganishga barqaror qiziqishini shakllantirishga va nutq ko‘nikmalarini yaxshilashga, maxsus adabiyotlarni o‘qishga odatlanishga, intellektual qobiliyatlarni yaxshilashga, ijodiy salohiyatni ro‘yobga chiqarishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning **“Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta’limni tashkil qilishga o‘rgatishning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta’limni tashkil qilishga o‘rgatish texnologiyasiga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlari mazmuni yoritilgan.

Ushbu bosqichda tadqiqot natijalari tahlil qilindi, nazariy va amaliy xulosalar umumlashtirilib ular asosida tadqiqotning yakuniy matematik-statistik tahlili amalga oshirildi hamda mazkur matematik-statistik tahlil natijalariga ko‘ra tadqiqotning umumiy xulosalari shakllantirildi, natijada olingan ilmiy xulosalar, nazariy va amaliy yo‘nalishdagi materiallar dissertatsiya shaklida rasmiylashtirildi. Mazkur bosqichda aniqlangan statistik va boshqa ma’lumotlar umumlashtirildi. Ular asosida tadqiqotning yakuniy matematik-statistik tahlili amalga oshirildi. Mazkur matematik-statistik tahlil natijalariga ko‘ra tadqiqotning samaradorlik darajasi belgilandi.

Mustaqil ta’limni tashkil qilish kompetensiyalarini rivojlantirish uchun web-quest texnologiyasidan foydalanishning pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:  
o‘quv motivatsiyasini oshirish uchun talabalarda ijod erkinligini ta’minlash;  
web-questni tegishli ta’lim sohasi uchun professional ahamiyatga ega materiallar bilan to‘ldirish;

qidiruv va tadqiqot o‘yinlariga, turli xil axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (elektron pochta, skype, blog, ijtimoiy tarmoqlar va boshqalar) foydalangan holda jamoaviy ish usullariga tayanib shaxslararo muloqot uchun imkoniyatlar yaratish.

Pedagogik tajriba-sinov ishlariga Guliston davlat universiteti, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti va Qarshi davlat universitetlarining chet tillari fakultetlaridan jami 302 nafar talabalardan 153 nafari tajriba guruhiga, 149 nafari nazorat guruhiga jalb qilindi.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini web-quest vositasida mustaqil ta’limni tashkil qilishga o‘rgatish texnologiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishning metodikasi tarkibiga quyidagi omillar kiritildi:

tajriba-sinov ishlarini maqsadga muvofiq tarzda bosqichma-bosqich amalga oshirilishini ta’minlash va bosqichlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik hamda uzviylikning mavjudligini ta’minlash; har bir bosqichda aniq maqsad va vazifalarning amalga oshirilishiga erishish; ta’lim vazifalarining turiga qarab web-questni baholash mezonlari va parametrlarini maqsadga muvofiq ishlab chiqish;

pedagogik tajriba-sinov ishlarini yetarli hajmda olib borish; tajriba-sinov ishlarining ilmiy asoslanganligi, faktlarning ishonchliligi, mavzuga aloqadorligi, amaliyotdan kelib chiqqanligini ta’minlash.

